

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФАҢЛАР
АКАДЕМИЯСИ МИНТАҚАВИЙ БЎЛИМИ
ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ**

**ХОРАЗМ МАЪМУН
АКАДЕМИЯСИ
АХБОРОТНОМАСИ**

Ахборотнома ОАК Раёсатининг 2016-йил 29-декабрдаги 223/4-сон қарори билан биология, қишлоқ хўжалиги, тарих, иқтисодиёт, филология ва архитектура фанлари бўйича докторлик диссертациялари асосий илмий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган

2023-6/4

**Вестник Хорезмской академии Маъмуна
Издается с 2006 года**

Хива-2023

Бош муҳаррир:

Абдуллаев Икрам Искандарович, б.ф.д., проф.

Бош муҳаррир ўринбосари:

Ҳасанов Шодлик Бекпўлатович, к.ф.н., к.и.х.

Таҳрир хайати:

Абдуллаев Икрам Искандарович, б.ф.д., проф.
Абдуллаева Муборак Махмусовна, б.ф.д., проф.
Абдуҳалимов Баҳром Абдурахимович, т.ф.д., проф.
Агзамова Гулчехра Азизовна, т.ф.д., проф.
Аимбетов Нагмет Каллиевич, и.ф.д., акад.
Аметов Якуб Идрисович, д.б.н., проф.
Бабаджанов Хушнот, ф.ф.н., проф.
Бекчанов Даврон Жуманазарович, к.ф.д.
Буриев Хасан Чутбаевич, б.ф.д., проф.
Ганджаева Лола Атаназаровна, б.ф.д., к.и.х.
Давлетов Санжар Ражабович, тар.ф.д.
Дурдиева Гавҳар Салаевна, арх.ф.д.
Ибрагимов Бахтиёр Тўлаганович, к.ф.д., акад.
Исмаилов Исҳақжон Отабаевич, ф.ф.н., доц.
Жуманиёзов Зоҳид Отабоевич, ф.ф.н., доц.
Жуманов Мурат Арепбаевич, д.б.н., проф.
Кадирова Шахноза Абдухалиловна, к.ф.д., проф.
Каримов Улугбек Темирбаевич, DSc
Курбанова Саида Бекчановна, ф.ф.н., доц.
Кутлиев Учқун Отобоевич, ф-м.ф.д.
Ламерс Жон, қ/х.ф.д., проф.
Майкл С. Энжел, б.ф.д., проф.
Махмудов Рауфжон Баходирович, ф.ф.д., к.и.х.
Мирзаев Сирожиддин Зайниевич, ф-м.ф.д., проф.
Мирзаева Гулнара Саидарифовна, б.ф.д.

Пазилов Абдуваеит, б.ф.д., проф.
Раззақова Сурайё Раззоқовна, к.ф.ф.д., доц.
Рахимов Рахим Атажанович, т.ф.д., проф.
Рахимов Матназар Шомуротович, б.ф.д., проф.
Рўзметов Бахтияр, и.ф.д., проф.
Садуллаев Азимбой, ф-м.ф.д., акад.
Салаев Санъатбек Комилович, и.ф.д., проф.
Сапарбаева Гуландам Машариповна, ф.ф.ф.д.
Сапаров Каландар Абдуллаевич, б.ф.д., проф.
Сафаров Алишер Каримджанович, б.ф.д., доц.
Сирожов Ойбек Очилович, с.ф.д., проф.
Сотилов Гойипназар, қ/х.ф.д., проф.
Тожибаев Комилжон Шаробитдинович, б.ф.д., академик
Холлиев Аскар Эргашевич, б.ф.д., проф.
Холматов Бахтиёр Рустамович, б.ф.д.
Чўпонов Отаназар Отожонович, ф.ф.д., доц.
Шакарбоев Эркин Бердикулович, б.ф.д., проф.
Эрматова Жамила Исмаиловна, ф.ф.н., доц.
Эшчанов Рузумбой Абдуллаевич, б.ф.д., доц.
Ўразбоев Ғайрат Ўразалиевич, ф-м.ф.д.
Ўрозбоев Абдулла Дурдиевич, ф.ф.д.
Ҳажиева Мақсуда Султоновна, фал.ф.д.
Ҳасанов Шодлик Бекпўлатович, к.ф.н., к.и.х.
Худайбергана Дурдона Сидиқовна, ф.ф.д.

Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси: илмий журнал.-№6/4 (102), Хоразм Маъмун академияси, 2023 й. – 309 б. – Босма нашрнинг электрон варианты - <http://mamun.uz/uz/page/56>

ISSN 2091-573 X

Муассис: Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси минтақавий бўлими – Хоразм Маъмун академияси

МУНДАРИЖА
ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

Abdullayeva D.A. Studying rhetorical sentence in terms of its semantic structure and categories	6
Akhmedova S.H., Shokulova L.B. Characteristic features of written discourse in the english language	8
Alimova S.S. Ingliz tilida otlarning kelishik grammatik kategoriyasi	10
Allaberdiev A. Buxoro o'g'uz shevalarida unli tovushlarning fonetik o'zgarishi	12
Amanlikova N.R. O'zbek va rus tillarida grammatik tizimining umumiy xususiyatlari tahlili	15
Arzieva B.A. Lexical units of funeral and mourning rites in the karakalpak and english languages	19
Avlaeva S.B. The essential role of neologisms in COVID-19 to enlarge vocabulary	21
Axmedova S.H., Mizrobova V.B. "Diskurs" terminining nazariy va amaliy xarakteristikasi	23
Azimova M.P. Theory of "concept", "conceptual semantics" and "linguistic semantics" in modern cognitive linguistics	26
Azizova N.O. The purification of violence and the translation of fairy tales	30
Baxranova D.U. Koreys tilida frazeologizmlarning tarkibiy jihatdan tuzilishi	32
Bazarova Sh.Sh. Feministik syujetda "ayol" konseptining qiyosi	35
Boboqulova G.Sh. Tohir Malikning "Shaytanat" asaridagi madaniyat xususiyatlari	39
Borasulova D.D. "Firdavs ul-iqbol" asarining o'rganilishi	41
Bozorova R.Sh. Gidropoetonimlarni qiyosiy tadqiq qilish	43
Cho'liyeva N.A'. Badiiy zamon va makon muammosining o'rganilishiga doir tadqiqotlar tizimi	46
Djumayeva N.D., Abduraxmonova M. Ingliz va o'zbek xalqlari diniy qadriyatlarini xususida	48
Djumayeva N.D., Murodova M. Qirol Artur haqidagi afsonalarda ingliz madaniyatining ifodalanishi	50
Elmuratova U.M. Koreys va o'zbek tillarida sifat so'z turkumining sintaktik vazifalari	53
Erbutayeva Sh.U. "O'zbek tilining izohli lug'ati" tarkibidagi ba'zi funksional ko'makchi vazifasida qo'llanilgan so'zlar tahlili	55
Eshmuratov Sh.X. Frazeologizmlar xalq dunyoqarashining timsoli sifatida	57
Fatullayeva K.R. Tibbiy birliklarning leksik-semantik munosabatlari	59
Ganiyeva Sh.A. Frazeologik kontaminatsiya masalalari	62
Ibragimov X. Nutq va xalq tili munosabati	64
Irgasheva U.A. Zamonaviy tilshunoslik doirasidagi baholash toifalariga yondashuvlar	66
Iskandarova A.R. O'zbek va rus tillarining so'z shakllanishining umumiy xususiyatlari	69
Haydarov A.A., Aminova Z.R. Ingliz va o'zbek tillarda leksemalarning konnotativ ma'nolari	71
Jarkinova T.A. Yusuf Shomansurning so'z qo'llash mahorati	74
Jumaniyozov A. Beruniy va sanskrit tili	77
Kabilova S.A. O'zbek va ingliz tillarida evfemizmlarning manipulyatsiya usullari va vositalari	80
Kasimova R.R., Alimova V.B. Cho'lponning "Kecha va kunduz" romanida badiiyat, uning yuzaga kelish omillari va mazmun-mohiyati	83
Khadjimuratova U. Functioning of diplomatic vocabulary in texts in english and russian business writing	87
Khamdamova D. The features of english pronunciation	90
Komiljonova K.G'. Erkin Vohidov she'riyatida tanosib san'atining qo'llanishi	91
Madaliev D.B. Problems in translation accounting-auditing terms and analyzing terms	93
Mamatov R. Nemis adibi Gerta Myullerning poetik asarlarini shakllanishida ijtimoiy muhitning o'ziga xos xususiyatlari	96

Maxmudov R.B., Madaminova R.M. Hofiz Xorazmiy devonidagi arabcha diniy atamalar	98
Mayliyeva G.B. Ingliz tilida sifatning semantik turlari	102
Mehmonova Yu.Ch. Etnomadaniy kollokatsiyalarning kombinatorial xususiyati	104
Mirzaeva A. Types of transtextuality and its analyses	107
Muminova U.Q. “Mahbub ul - qulub”da diniy atamalarning qo‘llanishi	109
Muqimova Z.R. Turg‘un o‘xshatishlarda madaniy kodlar	112
Murodova U.A. Til va madaniyat olam manzarasini ifodalovchi vosita sifatida	115
Murtazoyeva N. Kirish so‘z va ularning morfologik xususiyatlari	117
Mustafayeva S.U., Meliqulova M.X., Xolmatova G.B. Lexical and semantic characteristics of traditional Uzbek words in English	120
Narzullayeva H.Sh. Olamning lisoniy manzarasida “ma’naviyat” konsepti	122
Nazarova L.K., Juraeva B.N., Azamova M.J. Cognitive features of intercultural words	125
Nazarova Z.K. “Yurak” somatik leksemasi frazeologik birliklarning komponenti sifatida	127
Niholjonova N.I. Sa'diy She'roziy hikmatlarida insoniy fazilatlar talqini	129
Niyazmetova D.D. Ingliz va o‘zbek tillari frazeologiyasida oziq-ovqat bilan bog‘liq an‘analarning va xalq mentalitetining aks etishi	132
Nadim Muhammad Humayun Adabiy nutq tarjimasida realiyaning roli	136
Ne‘matova H.A. Nodim Namangoniyning nodir sayohatnomalari	139
O‘razboyev A.D., Otajonova F.G‘. Bir g‘azalning ming malohati	142
Omonov Sh.G. Murakkab otlar va ularning so‘z yasaliş modellarini tarjima qilishdagi qiyinchiliklar	146
Otanazarova SH.A. Iskandar – adolat va donishmandlik timsoli	148
Polvonova Sh.F. Oybek asarlarida konnotativ ma’noning turli usullarda ifodalanishi	150
Pulatova D. Murojaat shakllarining deytik vazifalari	153
Qoraev Sh. Xiva xoni Muhammad Rahimxon Feruz adabiyot kechalari va Ogahiy	156
Qudratov G‘S. Terminlar leksikaning maxsus qatlami sifatida	159
Rahmatullayeva N.E. Lingvokulturologiya – tilshunoslikning yangi yo‘nalishi	163
Ro‘zimatova D.M. Tilshunoslikda ijtimoiy maqom tushunchasi va uning o‘rganilishi	167
Sabirova B.U. Pragmalingvistik termin “Kommunikativ vaziyat” va “kommunikativ strategiya” terminlarning leksik-se mantik tahlili	170
Safarova F. N. Names of confectionery made of flour or dough in english and uzbek languages	173
Sakbaeva V.V., Yarmatova Yu.R., Ashurova N.M. Typology of verb word group in English and Uzbek languages	175
Samatova I.S. Amir Umar Khan's (Poet Amiriy)'s lyrics have a role of the superlatives	177
Saparova M.R. Some features of children’s language in fiction	180
Sapayeva B.Q. Gap shaklidagi gemeronimlarning o‘ziga xos xususiyatlari	181
SHerboeva N.J. O‘zbek adabiyotida paydo bo‘lgan dastlabki adabiy uyushmalar tarixidan	184
Shonazarova M., Madaminova Ya. Interference of fossilization in uzbek learners in acquiring english	186
Sindorov L.K. «Hibat ul-haqoyiq» dostonidagi o‘zlashma leksik qatlam haqida	188
Sodiqova S.T. Comparisons for describing human traits in the english and uzbek languages	191
Sultonova D.S. Kriminalistik mavzudagi asarlarning sub-janrlari tasnifi va ularning uslubiy o‘ziga xosliklari	192
Toshpo‘latova M.I. Ingliz adabiyotida musavvir obrazi	196
Toshxonov L. E’tiroz kategoriyasini ritorik argumentativ nutqda badiiy asarlar orqali ifodalanishi	198
Turakulova S.F. Maqollarning koreys tilini o‘rganishdagi o‘rni va ahamiyati	201
Turakulova S.F. XVII-XVIII asrlarda koreys hikoyalarida mavzu rangbarangligi	204
Turdialiyev A.X. Denov qarluqlar shevasida ko‘plik affiksining qo‘llanishi	207

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Концевич Л.П. Корееведение. Избранные работы. – М., 2001. С. 368
2. Елесеев Д.Д. корейская средневековая литература пхэсоль. – М., 1968. С.18.
3. Канке В.А. Основы философии. Уч. пос. – М., 2001.
4. Saydazimova U. XVII-XVIII asrlar koreys nasrining ma'naviy-estetik kontseptsiyasi. – Toshkent. 2018.
5. Kim V.N., Saydazimova U.T., Pak I.L. O'rganilayotgan mamlakat adabiyoti. – Toshkent. 2010.
6. Saydazimova U.T., Chou So Yong, Xvan L. Klassik koreys hnasri antologiyasi. – Toshkent. 2013.
7. 김선정. 살아있는 한국어 관요어. 서울, 2007.C.215.
8. 박영준. 최경봉. 관용어산전. 서울, 1996.C.410.
9. 국어문법. 서울. 2003. C.315.

UO'K 811.512.133'286

DENOV QARLUQLAR SHEVASIDA KO'PLIK AFFIKSINING QO'LLANISHI

A.X.Turdialiyev, tayanch doktorant, Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, Toshkent

Annotatsiya. *Surxondaryo viloyatida yashovchi aholi asosan qalug, qipchoq sheva vakillari hamda tojik tili aholi hisoblanadi. Maqolada denov qarluqlari shevasida ko'plik qo'shimchasi –lar, –lär, -la, -lä, -a, -ä ning variantlari bilan talaffuzda qo'llanishi haqida ma'lumot berilgan. O'rganilayotgan hudud shevasini Samarqand-Buxoro yoki Qarshu guruh shevasiga kiritish mumkinligi o'rganish jarayonida oydinlashdi. Maqola B.Jo'rayev, T.Qudratov, A.Jo'rayev, S.Rahimov, M.Mirzayev, D.Abdurahmonov, S.Ibrohimov kabi tilshunos olimlarning ilmiy ishlari bilan qiyoslab o'rganildi. Maqola yozishda O'zbek xalq shevalari morfologiyasi kitobi, Shoabdurahmonov Sh. Карлукское наречие узбекского языка monografiyasi metodologik asos qilib olindi va tahlilga tortildi.*

Kalit so'zlar: *ko'lik, sheva, affiks, -lar, žlovchi, denov, birlik, egalik, kelishik.*

Аннотация. *Жители Сурхандарьинской области в основном представители калукского, кыпчакского диалектов и носители таджикского языка. В статье приводятся сведения об употреблении суффиксов множественного числа -лар, -läр, -ла, -lä, -а, -ä в произношении в диалекте денов-карлуков. В ходе исследования стало ясно, что диалект изучаемого региона может быть включен в диалект самаркандско-бухарской или карикуйской группы. Статья сопоставлена с научными работами таких лингвистов, как Б. Джораев, Т. Кудратов, А. Джораев, С. Рагимов, М. Мирзаев, Д. Абдурахмонов, С. Иброхимов. Книга по морфологии узбекских народных диалектов в написании статей, Шоабдурахманов Ш. За методологическую основу и проанализирована монография «Карлукское наречие узбекского языка».*

Ключевые слова: *язык, диалект, аффикс, žlocative, денов, единственное число, притяжательный падеж, соглашение.*

Abstract. *Residents of Surkhandarya region are mainly representatives of Kaluk, Kipchak dialects and Tajik speakers. The article provides information on the use of the plural suffix -lar, -lä, -la, -lä, -a, -ä in pronunciation in the dialect of the Denov-Karluqs. It became clear during the study that the dialect of the studied region can be included in the dialect of Samarkand-Bukhara or Karshu group. The article was compared with scientific works of linguists such as B. Jorayev, T. Kudratov, A. Jorayev, S. Rahimov, M. Mirzayev, D. Abdurahmonov, S. Ibrohimov. A book on the morphology of Uzbek folk dialects in article writing, Shoabdurahmanov Sh. Karlukskoe narechie uzbezkogo language monograph was taken as a methodological basis and analyzed.*

Keywords: *language, dialect, affix, -s, žlocative, denov, singular, possessive, agreement.*

Qadimgi yozma yodgorliklar hamda eski o'zbek tilida otlardagi grammatik ko'plik ma'nosi, asosan, -lar, -lär affiksi orqali ifodalangan. Hozirgi turkiy tillarda ham -lar qo'shimchasi singarmonizm, assimilyatsiya, undosh tovushlarning tushirilib talaffuz etilishi kabi fonetik sababli vujudga kelgan ikki va undan ortiq fonetik variantlari bor.

Denov qarluq guruh shevalarida ko'plik qo'shimchasi –lar, –lär, -la, -lä, -a, -ä shaklida qo'llanadi.

- män kor bollim **bulä** tärmäškäni tärmäškän imäm bogin dep

- Zijädullä mudir kiçkinä qajnäyam bir särkämi, nimä sojdi **äzizlärimizgü** kejin bäväni älip ketti.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, qarluq lahjasining barcha shevalarida ko'plik affiksining –lä formasi juda keng qo'llanadi. toshk.: koçälä, dällä(donlar), Niyozboshi: kälxäzçilä, Jizz.: jigillä, Naman.: mehmänlä, tagob.: xätinlä//Namang.: xätillä;

-la, -lä affiksining qo'llanishiga ko'ra qarluq, o'g'uz shevalari qorachoy-balqar tiliga o'xshash[12; 8].

Ko'plik qo'shimchasining Andijon, Qo'qon, Uychi, Oshoba va Janubiy Qirg'iziston qarluq shevalarida uchraydigan –na, -nä, -ne [1] ko'rinishlari denov qarluq shevalarida kuzatilmadi.

-lar affiksi odatda egalik va kelishik qo'shimchalaridan oldin ba'zan esa keyin qo'shiladi. Qarluq tip shevalarda adabiy tildagidek egalik qo'shimchasidan oldin *-lar//lär* affiksi ko'plik ma'nosida beradi. Akalarim -äkälärim, bolalari – bäläläri, kitoblari – kitäbläri;

- *Ätä uruylarimiz äsli šährišäbzni qonyirätidan, kenägäs degän žäji bär.*

O'zbek shevalarida juft va takroriy so'zlar orqali ko'plik ma'nosini hosil bo'lishi o'zbek adabiy tiliga nisbatan faol uchraydi: And. *ьдъи-ауаэ* (ko'p idishlar); Hasp: *уль-кьчълэр* (katta-kichiklar); Mang': *машын-машын бала-чаға кегән* (moshin-moshin bolalar kelgan); [12; 10].

- sen, biz, siz, u olmoshlari ko'plik qo'shimchasi *-lar(-la)*ni olib turli shakllarda uchraydi. – *sen* olmoshi *-lar, -lär, -la, -lä* qabul qilib quyidagi shakllarda qo'llanadi:

- *sen +lar – senlar (sen+lär – senlär)*

- *sen+la – senla (sen+lä – senlä)*

bu shakl tengdosh va o'zidan kichiklarga nisbatan kengroq qo'llanadi. Jamlik, ta'kid qisman hurmatsizlik, kamsitish va mensimaslik ma'nosida qo'llanadi. Andijon shevasida bu shakl ko'proq nazarga ilmaslik va mensimaslik, kamsitish ma'nolarida ishlatiladi [12; 10]. *-lar, -lär* qo'shimchasi regressiv assimilatsiyaga uchrab *-senlar – sellär, -sellä* talaffuz qilinadi.

- *Sellä bäre vor ozim jetib älämän;*

- *Üzümdi sellägä deb sättim.*

- Biz olmoshiga *-lar* qo'shimchasi qo'shib quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi: - *bizlar(-bizlär), -bizar(-bizär), -bizla(-bizlä), -biza(-bizä)*. Bu shakllarning *-bizlar* va *-bizar* ko'rinishi *-bizla, -biza* ko'rinishlariga nisbatan kam qo'llanadi.

- *bizä ajmäqqa kirmäjmiz.*

- Siz olmoshi *-sizlar(-sizlär), -sizla(-sizlä), -silar(-silär), -sila(-silä)* shakllari uchraydi. O'zbek shevalarida *-biz, -siz* olmoshlari *-lar, -lär* qo'shimchasini olib ko'plik ma'nosidan tashqari xushmuomilalik, hurmat, kamtarlik ma'nolari bilan birga kesatish, kamsitish, mensimaslik, mazax qilish, hurmatsizlik ma'nolarida ham ishlatiladi. Denov shevalarida *-u* olmoshi ko'plik ma'nosida *-ular(-ulär), -ula(-ulä)* shaklida qo'llanadi. Bundan tashqari *-bu, -shu* olmoshlar ham ko'pliki qo'shimchasi *-lar* bilan kelganda *-r* tovushi tushib qolib *-bula, -shula* shaklida talaffuz qilinadi. Denov qarluq shevasida ko'plik qo'shimchasi anglatgan ma'nolar o'zbek adabiy tilidagi ma'nolar bilan farq qilmaydi. Ba'zi misollar bilan buni ko'rishimiz mumkin.

a) *sof ko'plik ma'nosini ifodalaydi: -bällärim jäš edi;*

- *mänävini bällär izidän jurädi zijädülläjev šiddäti bäländ, häräkäti zor, bällärgä bilim jetkäzib beriši jaxši.*

b) *umumlashtirish ma'nosida: -endi berdä qišläydi tub jäšäjdigän ähälisi äjmäylär bogän u jetti xožalik äjmäylär deydi;*

- *kejinmän uç kun kelin qizla minän käsä tävāqni qaträn qilib tändirni äqartirib, män uç kun xizmat qildim.*

c) *chama-taxminni bildiradi: -ustigä eski kijim ädäm ošä päjtlär kok žuldir čäpän kijärdi;*

- *Ushä birinči mättä issiy nän piširuvdim kejingi märtäjam berivärdim uš-tort soätlädän keyin soät unbirlägä älip ketgän bosä soät torlägä bästirib kelli, šunäj qib menäm bir tušdim.*

d) *ma'noni kuchaytirish, ta'kidlab ko'rsatish uchun: - u kiši xat jäzib berädilärki xalpalari xatti ilänla päššäsigä äbärädi;*

- *mäneräd mäçit qilištilar häm beš jil namäz oqištilar, mäment žumä nämäzdi täškil qiladi;*

- *Hä jaxši sizdi mävvuzijiz nimä jonälišgä, hä denäv ševäläri endi bungä qonyirätlardi, dormänlardi, žlävçülärdi, täžik äräläs sulälälär, [ni kiritasizmi].*

e) *hurmat ma'nosida: - Nijäz bäqi degän ekita xalpalari (bogän) bär äkän; - kejin vaxšivärgä bärgänlädä ošaqa qāganla;*

- *ičkärigä kiriñizlär qani; - Duldurläri otläb kelib suv bomägän, ätläri tujäyi bilän kävläb suv čiyarib ičgän.*

f) *Hurmatsizlik, kesatish, kamsitish ma'nosida: - ha: mä'limätlä:ni äldiñiz;*

- *bizdi qišläqqa birävlä ozläričä temurijlär ävlädidänmiz degäni nätoyi; - kesinlä - kesinlä qani torgä čiqsinla sizzi qačan kelärkän deb kozimiz tor(t) boluvdi-dä.*

Bazan *-seniñ bärin (-seni bärin)* birikmasi ham hurmatsizlik, kamsitish ma'nolarida qo'llanadi. Bu qo'llanish ayrim qipchoq shevalarida ham shu ma'noda anglashiladi. **Vaxm.:** *сенин бэринг бир иштиңг үдэсидән чыкмайсан* [12; 14]. Denov tumanining Ushor qishloq shevasida yoshi kattalar nutqida ba'zan yoshlar orasida ham hurmat ma'nosida *-ala //ülä* qo'shimchasi ishlatiladi. Masalan: *dadanglar uydami - dädänälä ujdämilä, onanglar kelmädilämi - änänälä kemädilämi.*

Bu qo'shimcha hurmat ma'nosida ishlatiladi o'zbek adabiy tilida uchramaydi. Lekin S.Ibrohimovning ma'lumot berishicha Andijon shahrining ayrim mahallalarida ayollar nutqida qarindosh-

urug'chilikni bildiradigan so'zlarda *-lar(lär)dan* oldin bir *ā* yoki *a* tovushi ortirib *əkamälär //əkam:läp* talaffuz qilinadi[6; 135]. Sh.Shoaabdurahmonov boshchiligidagi yozilgan O'zbek xalq shevalari morfologiyasida *-ala/älä* qo'shimchasi Andijon shevasida ayollar erkakalarga murojat qilganida *mullä äkä//mullä äkä* so'zlarini qo'shib ishlatishini va bu qo'shimcha shu so'zlarning qisqargan shakli bo'lishi mumkinligi haqida ma'lumot beriladi. Bundan tashqari tojik tilida *mullä* so'zi *mullä* shaklida talaffuz qilinishini ham inobatga olish kerakligi takidlanadi. Yuqoridagi fikrlardan shu ma'lum bo'ladiki Andijon shevasida *əkam(ull)älär - əkamälär, əkam(ull)älär – əkam:läp* shaklida qisqarishga uchragan[12; 16]. Ushor qishloq shevasida esa bu qo'shimcha Andijon shevasida bo'lgani kabi emas, chunki bu qishloq aholisi nutqida *mullä aka* so'zi ishlatilmaydi. Ushor qishloq aholisi kaltatoy, musobozori, chekalik, barlos va tojik tilli aholi bilan bir qishloqda qo'shniçilikda yashaganligi natijasida tojik tilining ta'sirida *mulla aka //mullä äkä* so'zi qisqarib tub aholi nutqida qisqargan shakli saqlanib qolgan bo'lishi mumkin². Bu qo'shimcha hudud shevasida ko'plik ma'nosida ishlatilmaydi faqatgina hurmat ma'nosida qo'llanadi.

Xulosa o'rinda shuni aytish mumkin, Denov shevalarida ko'plik va hurmat ma'nosida *-lar, -lä, -la, -lä, -a, -ä, -ala, -älü* qo'shimchalari qo'llanadi. Qarluq lahjalariga oid shevalarda bo'lgan *-na, -nä, -ne, -le, -ler* shakllari o'rganilayotgan hudud shevasida qayd qilinmadi. Adabiy tilda bo'lgani kabi shevada ham ko'plik-egalik qo'shimchalarining birgalikda qo'llanishi hurmat, ko'plik ma'nolarini vujudga keltiradi. Birlilik, ko'plik, hurmat-hurmatsizlik, kamtarinlik, manmanlik kabi ma'nolar so'zlovchining nutq ohangiga bevosita bog'liq bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi. Toshkent: Nodirabegim, 2021. B.176
2. Абдурахмонов Д. Қорлуқлар ва уларнинг тили. Ўзбек тили ва адабиёти, №3, Тошкент. Фан, 1987. В. 47-48
3. Благова Г. Ф. (Москва), Данияров Х. Д. (Самарканд). Говоры «тюрково» Узбекистана в их отношениях к языку староузбекской литературы Вопросы языкознания, Москва, Наука, №6 1966. 92-106 с.
4. Джураев А. Б. Теоретические основы ареального исследования узбекоязычного массива. – Ташкент: ФАН, 1991, 221с.
5. Джураев Х. Фонетико-морфологические и лексические особенности узбекских говоров, носящих этническое название “турк-калтатай”(по материалам Самаркандской, Джизакской и Сырдаринской областей УзССР). АКД, Ташкент, 1975. 410 с.
6. Иброхимов С. Ўзбек тилининг Андижон шеvasи. – Тошкент: Фан, 1967. – Б. 260
7. Носиров М. Сурхондарё шевалари бўйича айрим кузатишлар (диалектологик экспедиция материаллари асосида) // Ўзбек тили ва адабиёти. 1979. № 5. Б. 67 - 69 .
8. Рахимов С. Ўзбек тили Сурхондарё шевалари (Фонетикаси, Лексикаси). Тошкент: Фан, 1985. – Б. 390
9. Рахимов С. Сурхондарё Ўзбек тили шевалари лугати (Фонетикаси, Лексикаси). Тошкент: Фан, 1995. – Б. 135
10. Решетов В. В., Шоабдурахмонов, Ш. Ўзбек диалектологияси.- Тошкент: Ўрта ва олий мактаб, 1962. – Б. 360
11. Шоабдурахмонов Ш. Карлукское наречие узбекского языка. – Тошкент: Фан, 1983. – Б. 192
12. Ўзбек халқ шевалари морфологияси. Тошкент: Фан, 1984. – Б. 280
13. Кудратов Т. Ўзбек тилининг оралик шевалари (Шахрисабз, Яккабоғ, Чироқчи ва Қамашни районларидаги оралик шевалар материаллари асосида): Филол. фанлари номзоди... дис. Тошкент, 1968. – Б. 600
14. https://www.researchgate.net/publication/363127565_ADDRESS_AND_ADDRESS_IN_ALISHER_NAVOI'S_LYRICS_Aliser_Navoi_j_lirikasida_adresant_va_adresat_Adresant_i_adresat_v_lirike_Alisera_Navoi_j
15. https://www.researchgate.net/publication/357900963_FEATURES_OF_THE_PLURAL_FORM_OF_IQAN_DIALECT

UDC 808.5

THE ETYMOLOGY OF TERMS USED IN INTERNET NETWORKS IN UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES

D.Turdaliyeda, teacher, Uzbek State World Languages University, Tashkent

Sh.F.Faxriddinov, Trainee-teacher, Uzbek State World Languages University, Tashkent

Annotatsiya. Ushbu maqolada Internet tarmoqlarida o'zbek va ingliz tillarida ishlatiladigan atamalarining etimologiyasi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Internet tarmog'i, xorijiy til, kompyuter, AKT, terminlar, web – saytlar, dasturlar, ta'minot.

Аннотация. В этой статье рассматривается этимология терминов, используемых в сети Интернет на узбекском и английском языках.

Ключевые слова: сеть интернет, иностранный язык, компьютер, ИКТ, термины, веб – сайты, программы, оборудование.

Abstract. This article will talk about the etymology of the terms used in Uzbek and English on Internet networks.

Keywords: Internet Network, foreign language, computer, ICT, terms, websites, applications, supply.

² Bu haqda keyingi tadqiqotlarimizda batafsil to'xtalamiz.

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФАҢЛАР АКАДЕМИЯСИ
МИНТАҚАВИЙ БЎЛИМИ
ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ**

**ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ
АХБОРОТНОМАСИ**

**№6/4 (102)
2023 й., июнь**

Ўзбекча матн муҳаррири:	Рўзметов Дилшод
Русча матн муҳаррири:	Ҳасанов Шодлик
Инглизча матн муҳаррири:	Мадаминов Руслан, Ламерс Жон
Мусахҳих:	Ўрозбоев Абдулла
Техник муҳаррир:	Шомуродов Журъат

“Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси” Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги
Хоразм вилоят бошқармасида рўйхатдан ўтган. Гувоҳнома № 13-023

Теришга берилди: 05.06.2023
Босишга рухсат этилди: 13.06.2023.
Қоғоз бичими: 60x84 1/8. Адади 70.
Ҳажми 18,4 б.т. Буюртма: № 6-Т

Хоразм Маъмун академияси ноширлик бўлими
220900, Хива, Марказ-1
Тел/факс: (0 362) 226-20-28
E-mail: mamun-axborotnoma@academy.uz
xma_axborotnomasi@mail.ru



(+998) 97-458-28-18